_____viloyati _____tumani

Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi tasarrufidagi

___-umumiy o`rta ta`lim maktabi

Boshlang`ich sinf o`qituvchisi

_____ning

1-Sinflar uchun O‘qish savodxonligi fanidan

Mevalar g‘arq pishgan mahalda.

mavzusidagi

bir soatli dars ishlanmasi



Sana:_____

Mavzu: Mevalar g‘arq pishgan mahalda….

Maqsadlar:

Ta’limiy: O`quvchilarga yangi “ **Mevalar g‘arq pishgan mahalda….** “ mavzu bo`yicha yangi bilimlar berish to`g`ri va ifodali o’qish ko`nikmalarini shakllantirish va ularning nutq ravonligi haqida ma`lumotlar berish

b) tarbiyaviy: o‘quvchilarda berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg‘otish;

d) rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish, mavzu doirasida lug‘at boyligi hamda yozma savodxonligini oshirish.

Milliy o‘quv dasturidagi malaka talablari bilan mosligi:

Og‘zaki nutq : atrofdagilar bilan muloqotga kirisha olish, muloqot odobiga rioya qila oladi; rasmlar, odamlar, narsalar va voqealarni og‘zaki tasvirlay oladi; o‘quv dasturida berilgan mavzular yuzasidan fikr bildira oladi;

Yozma nutq :bo‘g‘in ko‘chirish, bosh harflar imlosiga rioya qiladi

Tinglab tushunish: tinglangan monologik nutq va suhbatdan so‘zlovchining nutq ohangini belgilay oladi ; berilgan savolni tushunadi va mantiqli javob bera oladi jonli nutq, audiomatn shaklidagi matnlarning xulosasi va g‘oyasini ayta oladi

Darsning metodi: og‘zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: o‘quv dasturi, dars rejasi, darslik, “O‘qituvchi kitobi”, xattaxta, texnik jihozlar.

Shakl: jamoa,guruhda ishlash,hamma o’zi uchun.

Nazorat: O’quvchilarning darsda faolligi kuzatilib,hisobga olib boriladi.

Baholash: O’quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib,dars oxirida e’lon qilinadi.

Darsning borishi:

T/R	Bo’limlar	Vaqti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O`tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O`quvchilarni rag`batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I.Tashkiliy qism, sinf tozaligi, o`quvchilar bilan salomlashish:

Salom aziz bolalarim,


Gulu rayhon bolalarim.

Qani tinglang so’zlarim

Jajji o’g’il-qizlarim.
Ona yurt egasisiz,
Istiqlol ertasiz
Bo’ling aqlu rasolar,
Ham bilimdon donolar.



Darsimiz:
-O’qish savodxonligi



-Qani, ayting bolalar,
Kim navbatchi bo'ladi?
Ushbu kunning hisobin,
Menga aytib beradi.

Ob-havo haqida ma`lumot va butun dunyoda ro`y berayotgan yangilikla haqida ma`lumot

II. O`tgan mavzuni mustahkamlash.O'quvchilarni bilim va ko'nikmalari tekshiriladi savollar orqali uyga berilgan vazifa so'ralib o'quvchilar baholanadi.

Guruhlar nomi









Topishmoqi





Uzum metodik o'yini

Uzum metodik o'yini



Uzum donalarida[illegible] Topshiriqni












III.Yangi mavzu bayoni:

Yozda pishadigan mevalar bilan savatni to‘ldiring.



Siz mevalar haqida qanday ma'lumotga egasiz?

Ichburug'



Saratonda, mevalar
G'arq pishgan yoz oyida,
Ichburug‘jon zerikib,
Qolibdi o'z joyida.




— G'uldur-g‘uldur, bu nima,
Yotamanmi burchakda?
Ov mavsumi boshlandi,
Mening joyim ichakda.

Oshqozonga yo'l topib
Olsam, qalbim quvnaydi.
Ehhe, qancha bolalar
Qo'llarini yuvmaydi.
Oziq-ovqat, o'yinchoq —



Barchasida hozirman.
Yuqumli kasalliklar
Ichra katta nozirman.
Qolib ketar o‘yinlar,
Ta'tillar ham tatimas.
— Qorningizni changallang,
Ichburug’ anoyimas!
Mana, qarang, turibmiz
Artilmagan olmada.
Kela qoling, Zumradoy,
Maftuna-yu Xolida.
Hovuzchada cho‘milgan
Hamdamga ham yopishdik.
Ehhe, qancha mikroblar
Ko‘lmak suvda topishdik.
Sanar bo‘lsam birma-bir,
O'nta daftar to'ladi.
Yoz Maza-da! Har kuni,
Bizga bayram bo‘ladi...





Muazzam Ibrohimova

Topshiriqlarni bajaring.
She'rdan ichburug‘ning gaplarini o'qing.
She'rda ishtirok etgan bolalarning ismlarini ayting.
Ismlar ishtirok etgan to'rtliklarni o'qing.

Izohli lug‘at:
changallamoq — qo‘l bilan mahkam ushlamoq
anoyimas — sodda emas
nozir — nazorat qilib turuvchi

IV.Yangi mavzuni mustahkamlash: Bajarilishi yuzasidan ko`rsatma beriladi:

Sharbat metodi

Yoz fasli uchun foydali sharbat tayyorlang buning uchun kerakli mevalarni olish lozim. Bu mevalarni olish uchun esa ularda yozilgan savollarga javob bering.

Topshiriqni guruhlar o’rtasida musobaqa tarzida tashkil etamiz.


Ichburug’ haqida nimalarni bilib oldingiz?
Sizningcha, ichburug’ qayerda yashirinib olgan?





**V.O`quv** …da faol qatnashgan o`quvchil…



VI.Uyga vazifa:
She'rni ifodali o'qing.
O`IBDO`: _____